

**XOTIN-QIZLARGA E'TIBOR – JAMIYAT KELAJAGIGA E'TIBOR**

*Fayzullayeva Klara Abdullayevna  
Jizzax politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar”  
kafedrasi o‘qituvchisi*

*Raxmatullayeva Sug`Diyona Farxod Qizi  
Jizzax SAMBRAXAM Universitet magistri*

**Annotatsiya:** Maqolada, inson uning xuquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng yuksak qadriyat sifatida tan olinadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishda, o‘z mehnatlari bilan davlat va jamiyat ravnaqiga salmoqli hissa qo‘sib kelayotgan fidoiy ayollarimiz doimo elu-yurtimiz ardog‘ida ekanligi, hamda qonunchilikda ayollarga ko‘plab imtiyoz va engilliklar berilganligi maqolada baholi qudirat olib berishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlari:** Murojaatnama, huquq, erkinlik, tenglik, PQ-323-son qarori, PQ-402 son qarori, 447-son qarori, PQ-5020-son qarori, 285-son qarori, 329-son qarori, 319-sonli qarori

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qat’iy qadam qo‘yanini anglatadigan jadal islohotlarning pirovard maqsadi tom ma’noda inson, uning xuquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng yuksak qadriyat sifatida tan olinadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdir.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Yangi O‘zbekistonni buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, mehnatkash, azmu shijoatli, adolatni qadrlaydigan xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz hamda islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz zarur[1]”, deb ta’kidlagani maqsadimiz qat’iyligiga yana bir dalolat. “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib borayotgani ana shu serqirra jarayonning mazmun-mohiyatini anglatadi. YUrtimizda erkaklar bilan bir qatorda turib mehnat qilayotgan xotin – qizlarning o‘rni alohida. YUrtimizda bilimli va tashabbuskor, o‘z mehnatlari bilan jamiyat ravnaqiga salmoqli hissa qo‘sib kelayotgan fidoiy ayollarimiz doimo elu-yurtimiz ardog‘ida, davlatimiz e’tiborida.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси <https://aza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliv-25-01-2020> (2020 йил 25 январь).

Barchamizga yaxshi ma'lumki mamlakatimizda biz ayollarning huquqi, erkinligi, tengligi eng oliv va muqaddas qadiriyat darajasiga ko'tarilgan, mamlakatimizda ayol-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarli qilish, bandligini ta'minlash, ularning jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli sohalarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifaga aylandi.

Ayniqsa, nozik xilqat vakillarining davlat va jamiyat qurilishi hamda boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish, ijtimoiy-siyosiy huquqlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani alohida e'tiborga molik. O'zbekistonda so'nggi 7-yilda davlat boshqaruvi sohasida ayollar ulushi 27 foizdan 35 foizgacha oshdi, gender tenglik bo'yicha O'zbekiston dunyoning eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakati qatoriga kirdi. So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki baravar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. 400 mingdan ko'pi ish bilan ta'minlandi. Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko'pini qizlar tashkil etmoqda. Ehtiyojmand oilalarga mansub xotin-qizlar qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilinmoqda. Ular uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarning kontrakt pulini qoplab berish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston qonunchiligidagi ayollarga 10 dan ortiq imtiyoz va engilliklar berilgani alohida ahamiyatga egadir, ulardan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 iyuldagagi PQ-323-sodan qaroriga ko'ra, to'lov-kontraktda o'qiyotgan xotin-qizlarga imtiyozli foizsiz ta'lim krediti berilmoqda. Kreditlar kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakliga beriladi. Ta'lim kreditining asosiy qismi talabaning ta'lim muddati tugagandan so'ng ettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi PQ-402-sodan qarori bilan, ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta'lim muassasalari kirishda davlat granti asosidagi qabul doirasidagi tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma beriladi.
3. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 avgustdagagi 447-sodan qarori bilan qabul qilingan tegishli nizomda OTM magistraturasida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qoplab berish tartibi belgilangan.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagagi PQ-5020-sodan qarori bilan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi

hisobidan 3 yilgacha va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million so‘mgacha kreditlar beriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagি PQ-4235-son qarori bilan, ayollarning pensiya yoshiga to‘lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to‘lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish taqiqlanadi.

6. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 apreldagi 285-son qarori bilan, uy-joyga muhtoj xotin-qizlarga beriladigan arzon uy-joylar to‘loving 10 foizi Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi, talabgor ishlayotgan tashkilot va boshqa manbalar hisobiga (boshlang‘ich badal sifatida), 90 foizi banklarning imtiyozli kreditlari hisobiga qoplanadi.

7. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagи 145-son qarori bilan, “Ayollar daftari”ga kiritilgan va o‘zini o‘zi band qiladigan xotin-qizlarga ayrim turdagи faoliyatni amalga oshirish (kasanchilik, hunarmandchilik, issiqxona qurish va shu kabilalar uchun zaruriy xom ashyo, ehtiyyot qism hamda qurilish mollarini sotib olish) maqsadida 5 mln so‘mgacha miqdorida kredit mablag‘lari naqd pulda beriladi.

8. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 apreldagi 257-son qarori bilan, jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatgan ayollar “Mo“tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanadi.

9. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining prezidentning 2022 yil 22-iyuldagи 329-son qarori bilan, mehnatga layoqatli, nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarni ish bilan ta’milagan ish beruvchilar uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari (600 ming so‘m) dan kam bo‘lmagan miqdorda subsidiya ajratiladi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 sentyabrdagi 319-sonli qarori bilan, “Ayollar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg‘iz ayollarning bolalari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ustunlik bilan qabul qilinish huquqiga ega.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni doirasida xotin-qizlarning faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta’milash bo‘yicha ham chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsam, haqiqatan ham, millat o‘z ayolini nechog‘li ulug‘lasa, uning o‘zi ham shunchalik ulug‘lanadi. Millat o‘z ayolini qanchalar

sharaflasa, o‘zi ham shunchalar sharaflanadi. Davlat ayolning farovon turmush kechirish shart-sharoitini, uning erkin hayoti, huquq va manfaatlari, or-nomusini himoyasini qanchalik keng yaratsa, ayol iftixori, uning qadri, kelajak oldidagi mas’ulligi uchun shuncha keng imkoniyat paydo bo‘ladi. O‘z ayollarini ulug‘layotgan, yangidan-yangi ulug‘ maqsadlar sari qadam tashlayotgan yurtimizga ko‘z tegmasin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/3107036>
2. O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/4549998>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020> (2020 yil 25 yanvar).
4. [Entoni Klayv Bouyer](https://isdp.eu/publication/political-reform-mirziyoyevs-uzbekistan/). Mirziyoevning O‘zbekistondagi siyosiy islohotlari: saylovlari, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatni <https://isdp.eu/publication/political-reform-mirziyoyevs-uzbekistan/> (2018 yil mart).
5. Fayzullayeva K. A. YANGI O ‘ZBEKISTONDA TURIZIM //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 619-624.
6. Файзуллаева К. А. ТАРИХИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ТЎҒРИ МУНОСАБАТНИ ШАКЛАНТИРИШ //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. – 2019. – C. 111.
7. Abdullayevna F. K., Qizi R. S. D. F. AFG ‘ONISTON MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNING KAFOLATI //” ONLINE-CONFERENCES” PLATFORM. – 2023. – T. 1. – C. 479-482.
8. Abdullayevna F. K. THE HISTORY OF SPECIAL CAMPS IN GERMANY DURING THE SECOND WORLD WAR //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY. – 2022. – T. 3. – №. 01. – C. 1-5.
9. Файзуллаева К. Реформы в сфере образования.//Вестник НУУз.Тошкент-2024.-1/11/1. –C. 71-73.
10. Abdullayevna, F. K., & Zafarovna, Y. N. (2024, February). XOTIN-QIZLAR O ‘ZGARISH VA YANGILANISHLAR ILM-FAN SOHASIDA. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 311-314).

11. Abdullayevna, F. K., & Abdurashidovich, T. M. (2021). Supporting young people and strengthening the health of the population-as a priority in the appeal. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 2(2), 147-152.
12. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 2(3), 23-26.
13. Yaxyayevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(3), 37-40.
14. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТЛИ ЯШАЙДИ. Educational Research in Universal Sciences, 3(1), 464-469.
15. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). Content of the concept of synergetics. *Scientific progress*, 3(3), 938-941.
16. Рашидова, Б. (2022). ЮКСАК МАҶНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 351-355.
17. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2023). MA'NAVIYAT JAMIYAT HAYOTINING JONI VA RUHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 503-506).
18. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(1), 161-168.
19. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2024, February). KELAJAGIMIZNI YOVUZ KUCHLAR QO'LIGA BERIB QO'YISHGA HAQQIMIZ YO'Q. In *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 32-36).
20. Rashidova, B. Y. (2023). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MAHALLANING TUTGAN O 'RNI.
21. Obidova, F., Umarova, Z., & Rashidova, B. (2024, March). Opportunities to increase the efficiency of the development of tourism services (In the example of Jizzakh Region). In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.

22. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). The concepts of sustainability and instability in synergetics are an important principle. *Scientific progress*, 3(3), 930-933.
23. Rashidova, B. Y. (2023). QUALITY EDUCATION AND TRAINING IS THE DEMAND OF THE TIMES. *Экономика и социум*, (2 (105)), 300-303.
24. Yahyoevna, R. B. (2022, March). WAYS AND WAYS TO PREVENT POVERTY (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN). In *E Conference Zone* (pp. 39-42).
25. Yakhyaevna, R. B., & Tulembaevna, M. S. (2024). Education of Youth in the Spirit of Patriotism. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 338-342.